2018 yilning **25 yanvar** kuni **“Yoshlar bilan muloqot: muammo va yechimlar” (#Meeting_with_ youth)** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi oʻtkazilishini maʼlum qilamiz.

**Konferensiyaning maqsadi:**

Yoshlar muammolarining sabablarini tadqiq etish, ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqish, shuningdek, bu borada olib borilayotgan ishlarni tizimli tashkil etishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligini yanada takomillashtirishdan iborat.

**Konferensiyaga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga talablar:**

- ilmiy maqolalar konferensiya yoʻnalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlillarga tayanib tayyorlangan, tugallangan fikr hamda tegishli taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- ilmiy maqolalar oʻzbek, rus va ingliz tillarida hamda maqola yozilgan tildan oʻzga tillarda kalit soʻzlari va rezyume keltirish bilan taqdim etiladi;
- taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar soha boʻyicha yetuk mutaxassislarning kamida bitta taqrizi bilan qabul qilinadi.

Ilmiy maqolalar matnlari tahrir qilingan holda A4 hajmdagi qogʻozga, yuqoridan va pastdan 2 sm., chapdan 3 sm., oʻngdan 1,5 sm. joy qoldirib, bir nusxada rasmiylashtirilgan boʻlishi lozim. Maqolaning nomi bosh harflar bilan yozilib, 1,5 intervaldan soʻng muallifning ismi va otasining ismini bosh harflari hamda familiyasi yoziladi, 1 intervaldan keyin tashkilot (ish yoki oʻqish joyi) va davlat (shahar) nomi koʻrsatiladi. Soʻngra 1,5 interval qoldirilib, matnning mazmuni 1,5 intervalli qatorlarda yoziladi.

Matnning elektron nusxasi MS Word dasturida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida boʻlishi va 5 betdan oshmasligi kerak. Maqolalar bir nusxa qogʻozda va elektron shaklda 2018 yil 20 yanvarga qadar quyidagi manzilga taqdim etiladi.

Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol koʻchasi, Maʼmuriy hudud binosi 60-uy,6 qavat 602-xona. Elektron manzil: respublika-yosholim@umail.uz Tel (+99897)7660336, (+99890)151 93 39

Batafsil maʼlumotlarni www.yoshlarittifoqi.uz saytidan olish mumkin.

*© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2018*